

2022
19-Oktjabr

O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA İLMIY TADQIQOTLAR JURNALI

ISSN: 2181-3302

SJIF:
4.621

2022 Impact Factor

Exact
Natural
Medical
Technical
Economics
Philological
Pedagogical
Social sciences
and humanities



**“O‘ZBEKISTONDA FANLARARO
INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR”
JURNALI**




«BEST PUBLICATION»
Ilm-ma’rifat markazi ©

MATERIALLARI TO‘PLAMI
19-OKTYABR, 2022-YIL
12-SON

O‘ZBEKISTON
2022



62.	Маматқулова Сурайё Абдусаматовна Назарова Чаросхон Нодиржон кизи <i>BRASSICA RAPA L. ОИЛАСИГА МАНСУБ ТУРП ИЛДИЗМЕВАСИННИГ ТАРКИБИДАГИ ОРГАНИК МОДДАЛАР ТАВСИФИ.</i>	337
63.	Allanazarov G.'Sh Choriyeva Surayyo Tolmasovna <i>ACHCHIQ SHUVOQ EKSTRAKTINI OLISH VA VETERINARIYADA INYEKSIYA DORISINI TAYYORLASH HAMDA SIFAT KO'RSATKICHLARI BO'YICHA BAHOLASH.</i>	341
64.	Раимова Н.Ж М.Қ.Имомова П.М.Юлдошева Эркинов С.Т <i>ШАМОЛ ТҮЛҚИНЛАРИ ТАЪСИРИДА БЎЛГАН ОҚИМЛАРНИ ГИДРАВЛИК МОДЕЛЛАШТИРИШ</i>	345
65.	Раимова Н.Ж М.Қ.Имомова П.М.Юлдошева Эркинов С.Т <i>РАСЧЕТ ПАРАМЕТРОВ ЖИВОГО СЕЧЕНИЯ ИРРИГАЦИОННЫХ КАНАЛОВ</i>	352
66.	А.Р.Рахимов М.Қ.Имомова Эркинов С.Т <i>ГРУНТ ЎЗАНЛИ КАНАЛЛАРДАГИ СУВНИНГ НОБАРҚАРОР ҲАРАКАТИДА ОҚИЗИҚЛАР ТАШИЛИШИННИГ ҲИСОБИ</i>	358
67.	Н.М.Авлаярова <i>ИННОВАЦИОННЫЙ МЕТОД ГИДРОРАЗРЫИВА ПЛАСТА</i>	363
68.	Абсаттаров Ниетбай Алланбергенович Омаров Алауддин <i>ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ШАРОИТИДА КУЗГИ ЮМШОҚ БУҒДОЙНИНГ ШОРТАНБАЙ-1 НАВИНИНГ БИРЛАМЧИ УРУФЧИЛИГИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ</i>	367
69.	Ortiqova Dildora Begmirzayevna Aydarov Yerkin Bakitovich <i>O'QUVCHI YOSHLARGA TABIIY HUDUDLARNI MUHOFAZA QILISH ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISH TEKNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	370
70.	Norboyev Sarvar Azodovich <i>KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJY INVESTITSIYALARNING RO'LI</i>	374
71.	Рахимова Умида Зиядуллаевна <i>ОБ ОДНОМ СЕМЕЙСТВЕ ОТОБРАЖЕНИЕ ОКРУЖНОСТИ С ОДНОЙ ТОЧКОЙ ИЗЛОМАМИ</i>	376
72.	O'razaliyev Shirinboy Bo'ron o'g'li <i>ОЦЕНКА СПРОСА ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ ПО ТЕНДЕНЦИИ ВРЕМЕННЫХ РЯДОВ</i>	382





O'QUVCHI YOSHLARGA TABIIY HUDDULARNI MUHOFAZA QILISH ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ortiqova Dildora Begmirzayevna

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ta'lim muassasalarining boshqaruvi yo'nalishi

2-kurs magistranti

Aydarov Yerkin Bakitovich

Annotatsiya: *O'quvchi-yoshlarni tabiiy hududlarni muxofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlash*

Kalit so'zlar: *ekologik tarbiya, tabiiy muhit, ekologik tarbiya imkoniyatlari, tabiatni asrash, oiladagi ekologik tarbiya*

Annotation: *Ensuring the functioning of the environmental education system for students and young people through the protection of natural areas is based on the state educational standards and on the basis of the consistency of educational programs at different levels*

Keywords: *environmental education, natural environment, opportunities for environmental education, nature conservation, environmental education in the family*

XXI asrga kelib tabiat bilan insoniyat orasidagi munosabat keskinlashdi. Tabiatga inson ta'sirida sodir bo'ladigan xavfli o'zgarishlar inson faoliyatiga ham kuchli ta'sir etmoqda. Bu xodisalardan himoyalanishi shu kunning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu muammo ayniqsa, kelajak avlod bo'lgan, maktab o'quvchi-yoshlari uchun ham dolzarb masaladir.

"Tabiiy muhit" tushunchasi tabiat va jamiyat bevosita aloqada bo'ladigan tabiatning bir qismi atrof-muhitni ifodalaydi.

Atrof-muhit bilan inson o'zining hayoti, ishlab chiqarish faoliyati orqali bevosita bog'langan.

Jahon mamlakatlari tarixidan ma'lumki, har bir davlatda eski iqtisodiy munosabatlardan yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish ma'lum bir davrni o'z ichiga olib, bu davrni iqtisodiy adabiyotlarda o'tish davri deb atashadi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan erkin demokratik xuquqiy davlat barpo etilayotgan bir paytda yurtimizda barcha xalqlar uchun millati, tili va dinidan qat'iy nazar hayot uchun zaruriy sharoit yaratib berish, kafolatlangan turmush darajasini yaxshilash va erkinliklarini ta'minlash davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatini ifodalaydi. O'zbekiston - o'ziga xos mustaqil taraqqiyot yo'lini, ya'ni jahonda "O'zbek modeli" deb e'tirof etilgan rivojlanish yo'lini tanlab olgan davlat hisoblanadi. Shu jumladan tabiatga, insonga, jamiyatga nisbatan bo'lgan munosabatlarimizda ham bu narsada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning 13-14 iyun 2019-yilda Beshkek





shahrida "Shanxay" hamkorlik tashkilotining sammitida, shuningdek 15-iyun 2019-yilda qo'shni Tojikiston Respublikasining Dushanbe shahrida o'tkazilgan Markaziy Osiyoda hududlarida tinchlik, omonlik va dunyo xavfsizligi masalalariga to'xtalar ekan, eng birinchi ekologik barqarorlik, Orol muammolari, ekologik hamkorlik va ekologik turizm masalalariga alohida e'tibor qaratib, dunyo bo'yicha bu muammolar dolzarb ekanligini asoslab, ko'pchilik diqqatiga havola etdilar.

O'sib kelayotgan yosh avlodlarga atrof-muhitni muxofaza qilish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri ekanligini uqtirib borishimiz zarur.

"O'quvchi-yoshlarni tabiiy hududlarni muxofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- mактабдан ташқари та'lim".

Keyingi yillarda ekologik ta'lim-tarbiya muammosiga bag'ishlangan qator ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Aksariyat tadqiqotchilar ekologik ta'lim-tarbiya tizimining tarkibi sifatida aniq tabiiy-ilmiy fanlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot-ishlari olib borganlar. Ammo, o'quvchi-yoshlarni tabiiy hududlarni muxofaza qilish orqali ekologik tarbiyalash texnologiyalari to'la o'rganilmagan.

Zero, ekologik tarbiya imkoniyatlari darjasasi qanchalik yuqori bo'lsa, kelajakdag'i amaliy ishlar ko'lami samarali bo'ladi. Xalqimizning moddiy farovonligi va turmush darajasini yaxshilash, tabiatni muxofaza qilish mamlakatimizda umumxalq ishiga aylangan.

O'quvchi-yoshlarni tabiiy hududlarni muxofaza qilish orqali ekologik tarbiya berishning metodologik-didaktik asoslari, prinsiplari, qonuniyatlari, psixologik-pedagogik imkoniyatlari asosida mezonlar ishlab chiqilib, pedagogika nazariyasiga qo'shgan ulushida; tabiiy hududlarni muxofaza qilish orqali ekologik tarbiya berishni ta'minlovchi o'quv materiallariga ega bo'lishida; tabiiy hududlarni muxofaza qilish orqali ekologik tarbiyani amalgaga oshirishdagi uslub va vositalar tizimining yaratilganligida; uzlusiz ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga tabiiy hududlarni muxofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish mazmuni, shart-sharoitlari, vositalari va ularni takomillashtirish yo'llarining ilmiy asoslab berilganligi tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatida aks etadi.

Maktab o'quvchilariga tabiiy hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish texnologiyalarini rivojlantirish, turli sohalarda va ma'lum bir yoshdan boshlab tabiatga havas hislarini shakllantirish, uni asrab-avaylash hamda muhofaza qilishi lozimligini ta'kidlaydi. Mazkur holatda o'quvchilarga tabiiy hududlarni muhofaza qilish





orqali ekologik tarbiya berish faqat alohida shaxs uchun emas, balki jamiyat va uning taraqqiyoti uchun zarurligini anglatadi. Shuningdek, malakali pedagoglarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri o'quvchilarga tabiiy hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish va yoshlar ongida tabiat in'om etgan barcha imkoniyatlarni asrash va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitni yaratish, tabiatning o'quvchilar ruhiyatiga ta'sirini ongli tushuna olish va malakali yordam berishdan iborat.

Bolalar oiladagi tarbiya tufayli ekologik jarayonning inson hayotidagi roli, uning ijtimoiy faoliyatida, kasbiy kamolotida ekologik uyg'unlikka e'tibor berishi, ekologik qonunlarning buzilshiga yo'l qo'ymaslik uchun harakat qilishi lozimligini anglaydi. Bolalarda tabiat muvozanatini muntazam saqlash, suv, yer zaxiralariga hurmat, e'tibor bilan qarash, ularni asrashga bo'lgan tushunchalar ham oilada shakllanadi. Ayniqsa, bolalarda atmosfera havosining inson hayoti uchun muhimligi to'g'risidagi mustaqil fikrlar oilada olib borilgan tushuntirishlar natijasida vujudga keladi. Fasllar almashishi tufayli vujudga kelayotgan yangilanishlar, inson turmushi, uning antropologik faoliyati tufayli ekologiyaga bo'lgan umumiyligi salbiy ta'sirning oshib borayotganligini ham bolalar oilada va maktabdagi ta'lim jarayonida tushunib oladi. Shuningdek, oiladagi tarbiyaviy ishlar natijasi o'laroq, bolalarda ekologiya haqidagi tasavvurlar maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridagi ta'lim orqali yanada chuqurlashadi, kengaytiriladi. Bu holat bo'lajak pedagoglarda ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonining boshlanishidir.

Yoshlar mamlakat aholisining ko'pchilligini tashkil qilishining o'zi bu ijtimoiy qatlamning jamiyatimizdagi salmoqli o'rnidan darak beradi. Jamiyatni modernizatsiyalash va demokratlashtirish, ya'ni fuqarolik jamiyatini shakllantirishda mamlakatimizda tabiiy boyliklarni saqlash va ulardan unumli foydalanish tizimini yanada mukammallashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bunday keng qamrovli vazifaning bajarilishi talaba yoshlar ekologik tarbiyasi va ular ekologik madaniyatini yuksaltirish ustida muntazam ishlashni talab etadi.

Har bir dars aniq maqsadni ko'zlagan holda rejalashtirilish yoki loyixa tuzilish lozim. Bu jarayonda o'qituvchi darsning ta'limi va ekologik tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. Dars bosqichlarini, ya'ni qanday boshlash, yangi materialni o'tish, uni tamomlash, ko'rgazmali va boshqa didaktik materiallardan samarali foydalanish kabilarni oldindan hal qilib oladi. Har bir dars aniq, ekologik izlanishga ega bo'lishi lozim. Har bir dars ta'lim muassasasining ijtimoiy muhit imkoniyatini hisobga olgan ekologik sharoit bilan bog'lanishi, ko'rgazmali vositalar bilan jihozlanishi shart.

Davlatimizning mustaqil rivojlanishi davrida yoshlarimiz axloqiy va estetik tarbiyasi hamda ekologik madaniyatni shakllantirishda muxim o'rinni egallayotgan, ushbu masalada qadar amaliy ishlarni bajarayotgan jamoat tashkilotlari vujudga keldi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim jarayonida o'quvchilarda barqaror ekologik madaniyatni shakllantirish quyidagi tizim asosida amalga oshiriladi. Maktab





o'quvchilarida geografiya darslari orqali barqaror ekologik madaniyatni shakllantirish uchun quyidagi tuzilma va uning tarkibiy qismlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq ekologik bilimlar, ekologik bashoratlash ko'nikmalari, ekologik baholash ko'nikma va malakalari, amaliy ekologik faoliyat. O'quvchi mana shu to'rta komponentni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim.

Ekologik bilimlar – o'quvchilarning tabiat va jamiyat xodisalari, ularning o'zaro aloqadorligi haqida xosil qilgan ishonchli hamda dalillar bilan asoslangan ma'lumotlari, tabiatning biror-bir komponentiga ko'rsatilgan noto'g'ri ta'sir albatta uning boshqa komponentlarining ham salbiy o'zgarishlariga olib kelishini tasdiqlovchi axborotlardir. Shakllangan ekologik bilimlar tizimi o'quvchi ekologik faoliyatining asosi bo'lib xizmat qiladi. Lekin, ekologik bilimlarni faoliyatga tatbiq etishdan oldin ekologik bashoratlash bosqichidan o'tishi zarur.

Ekologik bashoratlash ko'nikmalari - o'quvchining ekologik faoliyat natijasini, uning shakllanish va rivojlanish jarayonlarini oldindan ko'ra bilishidan iborat. Ekologik bashoratlash tabiat komponentlariga insonning ta'siri oqibatlarini oldindan anglash va maxsus reja ishlab chiqishdir. Bashoratlash jarayonida faoliyatning ekologik xavfsiz yoki aksincha ekanligi aniqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A.Karimov.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-Toshkent: O'zbekiston, 1997,-B.
2. H.Hamidov.,A.H.Xojimatov.,R.X.Allayorov.,M.A.Usmonxo'jayev. Ekologik madaniyat va ma'naviyat.-T.2018.O'quv uslubiy qo'llanma
3. Aliqulova M.M. Talabalar ekologik madaniyatini rivojlantirishga ilmiy-ijodiy yondashuv asoslari. Pedagogika- psixologiya yo'nalishi talabalari uchun uslubiy qo'llanma. - Toshkent: UzPFTI, 2015.
4. A.G.Norboyev.O'quvchilarda barqaror ekologik madaniyatni shakllantirish.-T.2012
5. Aydarov Ye.B. Ekologiya va tabiatdan foydalanish (o'quv-qo'llanma). Guvohnoma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 30 iyundagi 359-sonli buyrug'i. Ro'yxatga olish raqami 359-202.-Qarshi, -2021. 04-2170.
6. Karimov I.A.. Uzbekiston XXI asr busagasida: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va tarakkiyot kafolatlari. - Toshkent: Uzbekiston, 1997. - B. 110.
7. Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: Uzbekiston, 1993. - B.23-25.
8. Barkamol avlod - Uzbekiston tarakkiyotining poydevori . - Toshkent: Uzbekiston, 1997. - B.45.

